

BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH – OLIY XIZMATDIR

Bozorova Gulchehra

NDKTU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Xusanova Gullola

NDKTU akademik litseyi 1-S-23 guruhi o‘quvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kun yoshlarining tarbiyasi, oilada, mahallada, o‘quv maskanlarida olib borilayotgan samarali ishlar natijasi va uni amalda qo‘llash haqida.*

Kalit so‘zlar: *jadic namoyandlari, “Turkiy guliston yoxud axloq”, Cho‘lpon she’rlri, Behbudiyning “Padarkush” dramasi*

Inson aslida baxt va ezgulik uchun dunyoga keladi, shu orzu-umid bilan yashaydi. Lekin bu bilan ish bitmaydi, u shu niyatiga yetishi uchun intilishi, g‘ayrat ko‘rsatishi, yaxshilik ko‘rishi uchun yaxshilik qilishi lozim. Insonning shakllanishida, hayotda o‘z o‘rnini topishida, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovar bo‘lishida, yuksak axloq-odob qoidalarini o‘zida mujassam etishida oila asosiy o‘rinni egallaydi. Oila shunday makonki, unda hayotning davomiyligini ta’minlovchi shaxs shakllanadi, etnik madaniyat, urf-odatlar, axloqiy-milliy qadriyatlar saqlanadi va rivojlantiriladi, jamiyat taraqqiyotini belgilovchi iqtisodiy va ma’naviy hayot poydevori qo‘yiladi va mustahkamlanadi. Oila ahil va totuv bo‘lsa, jamiyatda tinchlik va hamjihatlikka erishiladi, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo‘lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi.

Jadic namoyondalari yoshlarga murojaat etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallahsga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o‘rinda jadidlarning biz yoshlarga murojaatini eslab o‘tmoqchiman.: "Ey, g‘ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, millat yo‘lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur. Muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun millatingiz ila taraqqiy qilursiz". . Asosiy g‘oyasi farzandlarga to‘g‘ri tarbiya berish bo‘lgan Behbudiyning “Padarkush” drammasi sahnalarda ijro etilganda xalq ularni o‘rnidan turib olqishlamadimi, yoki butun dunyoga mashhur “O‘tkan kunlar” romanining mashhurligiga sabab Otabek kabi mard va to‘g‘riso‘z yigitlarning hammaga o‘rnak bo‘la olgan xislatlarida emasmi? Munavvarqori bobomizning hikmatli so‘zлari, Cho‘lponning hurriyatga chorlovechi o‘tli satrlari bugungi baxthi hayotimizning debochasidir, balki.

Har bir millatning ma’naviy boyligi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unlashuvidan tarkib topadi. Asrlar davomida xalqning ma’naviy ehtiyojlari asosida shakllangan qadriyatlarda olg‘a surilgan ilg‘or g‘oyalarni o‘z ongida shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oilaning, xalqning jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxsgina ma’naviy yetuk, yuksak madaniyat sohibi hisoblanadi. Mustaqil respublikamiz istiqboli har bir fuqaroda o‘z burchi va majburiyatini chuqur anglagan holda, o‘zbek xalqi asrlar mobaynida

yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazishga intilishni an'anaviy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyoti va san'atini bilishini hamda ularga hurmat bilan qarashni, ona tiliga shuningdek, respublikada yashovchi boshqa xalqlar madaniyatiga, tiliga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, o'z ongida hurfikrlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni, ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilishni, oilani milliy qadriyatlar asosida mustahkamlashni, ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganishga erishishni talab etadi.

Oilada har bir bolaning xatti-harakatiga nisbatan rag'batlantirish yoki qattiqxo'lllik bilan munosabatda bo'lish, tanbeh berish, jazolash tarbiyada sinalgan usuldir. Ona bolani qilgan xatti-harakati uchun jazolayotganda, nasihat qilayotganda ota uning tarafini olmasligi, ota tarbiyaviy ish olib borilayotganda esa, ona aralashmasligi kerak. Bu bolani ikki yuzlamachi, hech qanday tanbeh, jazodan qo'rqlayotganda esa, ona aralashmasligi kerak. Bu bolani ikki yuzlamachi, hech qanday tanbeh, jazodan qo'rqlayotganda esa, ona aralashmasligi kerak. Bu bolani ikki yuzlamachi, hech qanday tanbeh, jazodan qo'rqlayotganda esa, ona aralashmasligi kerak. Bu bolani ikki yuzlamachi, hech qanday tanbeh, jazodan qo'rqlayotganda esa, ona aralashmasligi kerak.

Bola tarbiyasida oilaning har bir a'zosi, ya'ni, bobo, buvi, ota-onas, opa, aka, amma, xola, tog'a, qo'yingki qo'ni-qo'shni, mahalla, maktab, jamoatchilik birdek mas'uldir. Shuning uchun bola tarbiyasida barchaning talabi, munosabati umum axloq me'yorlariga mos bo'lmog'I zarur. Tarbiyachilar o'rtasidagi tarbiya usullarining, talab va fikrlarning har xilligi bolani tarbiyasizlikka olib keladi.

A.Avloniyning asarlari to'plami jaholatga qarshi kurashish va milliy o'zlikni anglashda bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Uning ayniqsa, «Turkiy guliston yo xud axloq» asari jamiyatimizning ma'naviy yangilanishi jarayonida bugungi yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi asosida tarbiyalashga katta ahamiyatga ega. Adib bu asarida axloq, xulq, tarbiya, fatonat (aql egasi bo'lish), diyonat, islomiyat, nazofat (pok bo'lish), sa'y va g'ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, iffat, hayo, iqtisod, itoat, xayri xohlik, sadoqat,adolat, muhabbat, afu, g'azab, jaholat, adovat, g'iybat, haqorat, hasad, nifoq, ta'ma, zulm kabi tushunchalarga ta'rif berish bilan birga, Qur'on, Hadis va allomalardan misollar keltirib, bu tushunchalarni izohlaydi va falsafiy mushohada qilib, o'quvchini yaxshi xulqlarga undab, yomon xulqlardan qaytaradi. Yozuvchining o'zi ham buni asar boshida shunday izohlaydi: «Insonlarni(ng) yaxshilikg'a chaqiruvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshilagini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurgon kitobni axloq deyilur».

“Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi”.

Ma'lumki, yoshlar Vatanimizning, mamlakatimizning kelajagidir. Shunday ekan, ular zimmasiga yuklatilayotgan eng murakkab va mas'uliyatli vazifani butun mohiyati bilan chuqur anglashi, his qilishi, unga o'zlarini hozirdanoq tayyorlab borishi lozim. Har bir yoshga yaxshi o'rnak bo'lishimiz, ularni keljakka ishonch bilan tarbiyalashimiz lozim.

Tarixga nazar tashlab buyuk bobolarimizning qilgan amallari bilan ruhlantirishimiz va shunday inson bo`lib shakllanishiga zamin yaratishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.Sh.Mirziyoev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”-T.: O‘zbekiston, 2018-yil 503-504-bet
2. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
3. M.Abdurashidxonov. Xotiralarimdan(Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B108-109
4. Nuritdinovich, Choriyev Nurislam. "AVTOMATLASHTIRILGAN ZAMONAVIY TO’QIMACHILIK KORXONALARIDA TALABALARNING AMALIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI." Научный Фокус 1.2 (2023): 341-345.
- 5.Nuritdinovich C. N. INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDА MUHANDISLIK KASBIGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH //O’ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 20. – С. 356-360.
- 6.Amanturdiyevna, R. D., Xudoyqulovna, M. F., Salimovna, D. Y., Akmalovich, K. S., & Nuritdinovich, C. N. (2022). METHODOLOGY OF FORMING ENGINEERING COMPETENCIES IN STUDENTS BASED ON INNOVATIVE APPROACH (IN THE EXAMPLE OF THE EDUCATIONAL DIRECTION OF CONSTRUCTION AND TECHNOLOGY OF LIGHT INDUSTRIAL PRODUCTS (SEWING PRODUCTS). Journal of Pharmaceutical Negative Results, 3898-3901.
- 7.Dilafruz, R. (2023, March). BO’LAJAK MUHANDISLARNI TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUVNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 11-14).
- 8.Dilafruz, R. (2024). PECULIARITIES OF DEVELOPMENT OF METHODOLOGICAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL EDUCATION. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(01), 139-142.
9. Amanturdiyevna, R. D. Z. (2023). INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING MUHANDISLIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI. PEDAGOG, 6(12), 7-10.
10. Amanturdiyevna, R. D. (2022). Innovative Approaches and Their Future Muhmainly the Importance of Andi Ready. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 1(9), 1-4.
11. Radjapova, D. A. (2022). Professional activity and development stages of engineers in the world education system.
12. Radjapova, D. A., Raximkulova, S. A., Boltayeva, I. B., & Urozov, M. K. (2021). Study of Modern Technologies of Sewing Manufacturing. International Journal on Orange Technologies, 3(11), 85-86.
13. Toshbekov, O. A., Urozov, M. K., Baymurova, N. R., & Hamrayeva, M. F. (2022). Processes of bleaching and discolouring of wool fibers. INTERNATIONAL JOURNAL OF

SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(06), 231-235.

14. Rahimovna, B. N. (2023). DUAL TA'LIMI ASOSIDA TALABALAR KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH. PEDAGOG, 6(12), 11-14.
15. Mukumova, F., & Baymurova, N. (2023). TEACHING STUDENTS THE ART OF EMBROIDERY AND ARTISTIC WEAVING IN EXTRACURRICULAR ACTIVITIES. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(12), 64-67.
16. Rakhimovna, B. N., & Kudratovna, M. N. (2022). CREATION OF METHODS OF MAKING NATIONAL JEWELRY IN SURKHANDARYA COSTUME. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13.
17. Rakhimovna, B. N. (2024). INTEGRATION OF THEORY AND PRACTICE OF THE DUAL EDUCATION SYSTEM IN THE FIELD OF LIGHT INDUSTRY EDUCATION. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 4(02), 336-341.
18. Baymurova N. R., & Toxirova A. Sh. (2022). ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA YANGI TEXNOLOGIK JARAYONLARDAN FOYDALANISH ORQALI MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH. Iqtisodiyot va jamiyat, (10-1 (101)), 264-267.
19. Odilzhanovich, T. K., Makhmudovna, N. M., & Odilzhanovich, I. A. (2021). The selection of the control parameter of the raw cotton electric sorter. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(11), 1-5.
20. Odilzhanovich, T. K., Odilzhanovich, I. A., & Makhmudovna, N. M. (2021). Analysis of FLUFF in the Process of Lintering of Seeds. Central Asian journal of theoretical & applied sciences, 2(11), 26-28.
21. Ma, W., Yan, B., & Sun, L. (2022). Generative adversarial network-based short sequence machine translation from chinese to english. Scientific Programming, 2022.
22. Nabihev, K. K., Yakubov, N. J., & Niyazaliyeva, M. M. (2019). Tikuvchilik buyumlarini tikishda ipning ishonchlilagini oshirish usullari. Ilm-fan va ta'lim byulleteni, (20-3 (74)), 14-16.
23. Niyazaliyeva, M. M., Dadajonov, Sh.D., Oxunbabayev, O. A., & Oxunbabayev, U. O. (2022). JONLI PILLADAN XOM IPAQ ISHLAB CHIQARISH, QAYTA OZIQLANTIRISH USULI BO'YICHA JONLI COCOONS GROWN-DAN XOM IPAQ ISHLAB CHIQARISH. Professor ve Zotikov tavalludining 135 yilligiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konfessiya yakunlari bo'yicha ilmiy ishlar to'plami:(2022 yil 25 may). 2-qism.M.: RGU nomli Kosygina, 2022 yil.171 s., 91.
24. Makhmudovna, N. M., & Dadajonovich, D. S. (2023). An Innovative Method of Storing Live Cocoons and its Impact on the Quality and Technological Indicators of Live Cocoons. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 20, 12-17.
25. Makhmudovna, N. M., Muhammadkarim, M., & Oxunjonovich, A. U. (2021). IMPROVEMENT OF THE RECYCLINGPROCESS OF COCOONS RECEIVED FROM THE REPEAT FEEDING. 湖南大学学报 (自然科学版), 48(12).